

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TARBIYASIDA XORIJIY
DAVLATLARNING O‘ZIGA XOS YONDASHUVLARI****Nuritdinova Shodiya Mahmudjon qizi***Guliston davlat pedagogika instituti magistri*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz maktabgacha ta’lim tizimida xorij davlatlarning samarali tajribalaridan foydalanish metodlari, usullari, va amalga oshirish bosqichlari hamda mamlakatimiz maktabgacha ta’lim sohasida keng qamrovli islohatlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirish kerakligi haqidagi fikr mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, tarbiya, nodavlat, adaptatsiya, interfaol, integratsiya, modifikatsiya, eksperimentatsiya, inkorporatsiya

Abstract: This article discusses the methods, techniques, and implementation stages of using the effective experiences of foreign countries in the preschool education system of our country, as well as the need for our country to carry out comprehensive reforms and restructuring in the field of preschool education.

Keywords: Preschool education, education, non-state, adaptation, interactive, integration, modification, experimentation, incorporation

Kirish:

Mamlakatimizda iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning yuqori sur’atlarda rivojlanishi jamiyat a’zolarining ijtimoiy tafakkuridagi ijobiy o‘zgarishlar bilan uzviy bolliqdir. Jamiyatda yashayotgan kishilarning tafakkurida ijobiy o‘zgarishlar hosil qilmoq uchun, eng avvalo, ta’lim tizimida tub burilishlar bo‘lishi lozim. Mamlakatimizda iqtisodiy va siyosiy sohalar bilan bir qatorda ta’lim sohasining rivojlanishiga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlariga oid ko‘plab farmon va me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Bu hujjatlar zahirida mamlakat taraqqiyotini rivojlantirish masalasi ustuvor sanalsa-da, shu orqali jamiyatda yashayotgan har bir insonning barcha imkoniyatlarga ega bo‘lgan sharoitda yashashi, hayotidan rozi bo‘lishi masalasi turadi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini isloh qilishni prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev — “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida — inson kapitali tushunchasi bilan bolaydi. Ya’ni rivojlangan mamlakatlarda ta’limning to‘liq sikliga investitsiya kiritishga, ya’ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e’tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko‘rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e’tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart deb, yozadi davlatimiz rahbari.

Demak, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishda prezidentimiz asarlari va maruzalari hamda Farmonlari va Qarorlarida belgilangan vazifalar metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimida xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish yuzasidan alohida adabiyotlar, tadqiqot ishlari juda kam, bu boradagi manbalarning faqatgina elektron resurslari mavjud bo'lib, ularni ham internetning turli veb saytlaridan topib, tarjima qilib o'rganish mumkin.

Yuksak taraqqiyotga ega bo'lgan jamiyatni yuksak tafakkurga ega bo'lgan shaxslargina barpo eta oladi. Yuksak tafakkurli shaxslarni yetishtirish ta'lim va tarbiya bilan shuullanuvchi soha egalari hisoblangan pedagoglar, tarbiyachilar, o'qituvchilar faoliyati bilan bolliq.

O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan prezident farmonlari va qarorlari xorijiy tajribani o'rganish va uni mamlakatimizda qo'llash borasida muhim ahamiyatga ega.

Yaponiyada bola tarbiyasiga yondashuv. Besh yoshgacha farzand — poshsho, o'n besh yoshgacha — qul, o'n besh yoshdan keyin — do'st!

Yaponlardan juda ko'p narsani o'rganish mumkin. Ayniqsa, bu kunchiqar davlatning farzandlariga tarbiya berish usullari ko'pchilikni hayratga solib kelgan. Ularning tarbiya berish usuli «ikudzi» deb nomlanib, bu faqat ta'lim berish majmui bo'libgina qolmay, yangi avlod ta'lim olishiga yo'naltirilgan falsafadir!

Ona va bola birdamligi

Yaponiyada ona «amae» deb nomlanadi. Bu so'zni to'ridan-to'ri tarjima qilib, uning chuqur ma'nosini yetkazib berish juda qiyin. Lekin bu so'z «amaeru» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «erkalash», «homiylilik qilmoq» ma'nolarini anglatadi.

Asrdan asrga yaponiyalik oilalarda bola tarbiyasi — ayol kishining ma'suliyati hisoblanib keladi. Albatta, XXI asr tarbiya berish taomillari nihoyatda farqlidir. Masalan, avvallari ayollar faqat xonadon ishlari bilan shuullanishgan bo'lsa, zamonaviy yapon ayollari ta'lim olishadi, ishlashadi va sayohat qilishadi.

Shunga qaramay, agar ayol farzandli bo'lishga qaror qilsa, u o'zini butunlay oilaga baishlashi kerak. Farzand 3 yoshga to'lmaguniga qadar ona bolasini o'zi o'stirishi va ishga chiqmasligi lozim. Ayolning asosiy majburiyati — bola tarbiyasi, zero, Yaponiyada o'z majburiyatlarini bironing zimmasiga yuklab qo'yish tartibi mavjud emas.¹

Bundan tashqari, kichkintoy bir yoshga to'lmaguniga qadar ona va bola — bu bir butunni tashkil qiladi. Ona qayerga bormasin, nima ish qilmasin, chaqaloq doim ona bilan bo'lishi zarur! Oxirgi paytlarda «Bebi-sling»lar, ya'ni bolarni kenguru

¹ Sbornik Detskiy sad v Yaponii. Perevod s yaponskogo Grishevskiy N.D. — Moskva: 1997.

qopchasiga o'xshash qopchalarda ko'tarib yurish Yaponiyada juda ilgari mavjud bo'lib, uning hozirgi kundagisi mukammallashgan zamonaviy ko'rinishidir.

«Amae» — o'z farzandining soyasidir. Muntazam jismoniy va ruhiy munosabat onaga bo'lgan mustahkam obro'-e'tibor negizidir. Yapon ayollari uchun o'z bolasini hafa qilish va ranjitishdanda og'irroq narsa yo'q dunyoda.

Bola — podsho.

Ikudzi nuqtai-nazarlariga ko'ra besh yoshgacha bola — farishtadir. U uchun man qilingan narsaning o'zi yo'q, unga hech kim ovoz ko'tarmaydi va hech qachon jozalamaydilar. U uchun «mumkin emas», «yomon», «zararli» degan so'zlar mavjud emas. Bolakay o'zining bilim orttirish dunyosida erkin hayot kechiradi.

Yevropalik hamda amerikalik ota-onalarning fikriga ko'ra inijliklariga erk berish orqali erkalash va nazoratning umuman yo'qligidir. Aslida, Yaponiyada ota-onaning hukumronligi g'arb mamlakatlariga nisbatan kuchliroqdir. Sababi, ularning tarbiyasi asosida keyingilar yotadi:

* shaxsiy misol;

* his-tuyg'ularga munosabat bildirish.

1994-yili Amerika va Yaponiya o'rtasida bolalarga tarbiya hamda bilim berish bo'yicha tafovut ilmiy-tekshirishi o'tkazilgan. Olim Azuma Xiroshi ikki xil madaniyat vakillari ona-bolasidan piramida-konstruktorini yig'ish shartini e'lon qildi. Natijada, tadqiqotchilar shuni guvohi bo'lishdiki, yapon ona avval konstruktorni o'zi yig'ib, buni o'z farzandiga ko'rsatgan. Keyin bolasidan o'zi — mustaqil ravishda yig'ib ko'rishini so'ragan. Bolaning qo'lidan kelmasa, ona yana bir marotaba yasab ko'rsatib bergan.

Amerikaliklar esa boshqa yo'l bilan yasagan. Ular konstruktorni yasashdan avval, uning yasash algoritmini bolasiga tushuntirgan, so'ngra ona-bola konstruktorni yasashni boshlashgan.

Pedagogik usullarning sezilarli farqini Azuma ota-onalikning «tushuntiruvchanlik» turi deya sharhladi. Ya'ni, yaponiyalik ayollar o'z farzandlariga muomala va ish-harakatlari orqali «tushuntirishadi». Shu bilan birga farzandlariga yoshligidanoq o'z hissiyotlarga, yaqinlari va hatto buyumlarga ham e'tiborli bo'lishni o'rgatishadi. Sho'x kichkintoyi hech qachon issiq choynak oldidan haydashmaydi, bolakay kuyib qolsa, «amae» undan uzur so'ragan holda ish-harakatlari unga og'riq yetkazganini eslatib qo'yadi.

Boshqa misol: erkanib ketgan bolakay hamma o'yinchoqlarini sindirib tashlaganda amerikalik yoki yevropalik onalar qanday yo'l tutadilar? Taxmin qilish mumkinki, qo'lidan o'yinchoqni tortib olib, uni sotib olish uchun qancha mehnat qilganligi haqida «ma'ruza» o'qib beradi... Yaponiyalik ayol esa hech qanday chora qo'llamaydi. Shunchaki «Sen uning jonini og'rityapsan» deydi.

Shunday qilib, rasmiy jihatdan yaponiyalik bolakaylarga 5 yoshgacha hamma narsa mumkin. Bu bilan birga bolada «Men» timsoli hamda «yaxshi» — tarbiyali va chin dildan sevuvchi ota-ona fikri shakllanadi.

Bola — qul.

Besh yoshida bola «shavqatsiz haqiqat» bilan yuzlanadi, ular rioya qilishi shart bo'lgan berahm qoida va cheklanishlar nimaligini ko'radi.

Bola uchun bunday keskin o'zgarish og'irlik qilsa kerak, deb o'ylashingiz ham mumkin, albatta. Gap shundaki, asrdan-asrga yaponiyalik jamiyat — jamoaga qarashlidir. Tabiat va ob-havo hamda iqtisod sharoitlari odamlar bir-biri bilan jambul-jam bo'lib ishlashi va yashashiga majburlaydi. Faqat bir-birini qo'llash va fidokorlik guruchning umumiy hosiliga ega bo'lishni ta'minlaydi, ya'ni mo'l-ko'lchilikni olib keladi. Bu bilan biz syudan isiki, ya'ni jamoaviy ongini kuchli rivojlanganligini hamda iye tizimi, ya'ni patriarxal oilaviy tuzumni ko'rishimiz mumkin.

Yaponlar uchun jamoaviy qiziqishlar barcha narsadan ustun. Odamzod esa og'ir mexanizmning bir bo'lakchasi bo'lib, agar bir inson jamoada o'z o'rnini topa olmasa, demak u e'tibordan qolgan odam!

Aynan shu sabablarga ko'ra bolalarga 5 yoshgacha ushbu guruh a'zosi bo'lishni o'rgatishadi. Ularga «Agar shunday yo'l tutsang, ustingdan hamma kuladi» nutqi juda tanish. Zero, yaponlar uchun jamoadan chetlanishdanda qo'rqinchli narsaning o'zi yo'q va bolalar ham shaxsiy qiziqishlarini qurbon qilishga tez o'rganishadi.

Doim o'zgaruvchi tarbiyachi yoki maxsus tayyorlovchi maktab o'qituvchisi ham murabbiy yoki tarbiyachi rolini emas, yo'naltiruvchi vazifasini bajarshadi. Uning uslub xazinasida «Tarbiyasini kuzatuvchilarni vakil qilish»ni ko'rish mumkin. Masalan, qo'l ostidagi tarbiya beruvchisiga vazifa berish bilan birga tarbiyalanuvchilarni guruhlariga bo'lib, o'z guruhidagilar ishini kuzatish vazifasi yuklatiladi.

Yapon bolakaylarining sevimli mashg'uloti — komandada bajariladigan sport o'yinlari, estafeta va xor qo'shiqlarini kuylashdir.

Guruh qoidalariga rioya qilish ham onaga bolanib qolishda yordam beradi. Axir, jamoa tartibini buzsa, «amae» juda qattiq ranjiydi, bu esa onasiga emas, shu bolaning o'ziga isnod degani.

Shunday qilib, bolakayning 10 yil hayoti guruhning bir qismi bo'lishga, jamoada kelishib ishlashga o'rgatadi. Bunga ko'ra unda guruhiy ongi hamda jamoaviy javobgarligi shakllanadi.

Bola — do'st.

15 yoshga kirib, bola to'laqonli shakllanib voyaga yetgan shaxs sanaladi. Endi asosida avvalgi ikki bosqich yotuvchi qarshilik ko'rsatish va tenghuquqlik bosqichi kirib keladi.

“Ikudzi — bizning tushunchamizga ko‘ra tarbiya berishning mantiqqa zid shaklidir. Biroq bu usul asrlar mobaynida tekshirilgan va Vataniga sodiq, qonunlarga rioya qiluvchi tarbiyali fuqaroni shakllantirishda yordam beradi.”²

Farzand tarbiyalashda yahudiy millatiga xos 7 qoida. Har millatda bo‘lgani kabi, yahudiylarning ham farzandlariga nisbatan mehr-muhabbati tuganmasdir. Odatda yahudiylar bola tarbiyasiga eng mas’uliyatli millat sifatida e’tirof etiladilar. Shu sabab bo‘lsa kerak, bu millat jahonga ko‘plab buyuk insonlarni bergan.

“O‘il tarbiyalash mas’uliyatli ish, qiz tarbiyalash esa – sharaflı ishdir,” deydi yahudiy xalqi. Qolaversa, bu millat farzandi kelajagiga uning jinsidan kelib chiqib qayurmaydi. Qizmi yoki o‘ilmi iloji boricha uni qo‘llab-quvvatlaydi.

Yahudiylar har bir bolaga qandaydir iste’dod berilganiga ishonadilar. Quyida farzand tarbiyalashda bu millatga xos ba’zi qoidalarini e’tiboringizga havola qilamiz.³

[Hech qachon bolani aybdor kayfiyatga solmaydilar.](#)

Onalar bolalarini biror aybi uchun jazolashga yoki u aybni bolaning bo‘yniga qo‘yib, uni mulzam qilishga shoshmaydilar. Ular bu vaziyatda “sen ahmoq bola qanday qilib bu ishga qo‘l urding?” deyish o‘rniga “mening aqlli bolam bu kabi xatoni nima sababdan qildi ekan?” qabilida ish tutadilar.

“Mening bolam bekam-ko‘st va biror kamchiligi bo‘lishi ham mumkin emas” degan o‘y-fikr onalar ongida mudom turadi va onalar buning isboti uchun qo‘llaridan kelgancha harakat qiladilar.

Ayniqsa, onalar “bolani onasining emas, qo‘shnilarning so‘zlariga qarab bil” degan yahudiy maqoliga juda e’tiborli bo‘ladilar. Modomiki, farzandda biror kamchilik ko‘zga tashlansa, ona buni zudlik bilan bartaraf etishga kirishadi.

[Farzandga aqliy erkinlik beradilar.](#)

Zamonaviy yahudiy ota-ona farzand tarbiyasida ikki bir-biriga zid qoidaga amal qiladi: bolaning erkin bo‘lishiga harakat qiladi hamda unga nisbatan qattiqqo‘l munosabat. Bu tarbiyani majoziy ma’noda mustahkam devorli katta va emin-erkin yurish uchun sharoit yaratilgan xonaga qiyoslash mumkin.

Ba’zi yahudiy oilalarining qonun-qoidalariga ko‘ra, ota-ona va farzand o‘rtasida biror muzokara olib borilayotganida gapirish istagida bo‘lgan bola qo‘l ko‘tarib, ota-onasidan izn so‘rashi kerak bo‘ladi.

Bu millat ota-onalari qimmatbaho buyumga zarar yetkazgan yoki kerakli hujjatni yirtib qo‘ygan farzandlariga ta’na toshlarini yog‘dirmaydilar.

Yahudiy ota-onalari farzandlarini tarbiyalashda maxsus qonun-qoidalar ham ishlab chiqmaydilar. Aslida, ularni “zaharli havo”dan himoya qilishga intiladilar.

² Борисова Светлана Петровна. Современное дошкольное образование за рубежом— Москва: 1994.

³ 44. Параманов Л.А. Протасова С.И. Дошкольное и начальное образование зарубежом: история и современность – М.: «Академия »,2001.

Qattiqqo'llikka asoslangan tarbiyaga esa bolada nojoiz xatti-harakat namoyon bo'la boshlagan paytdan amal qilinadi. Lekin ota yoki onaning qimmatbaho kiyimiga dog' tekkizgan farzandni jazolash bu millatga xos emas.

[Har qanday kichik sabab bolani maqtash uchun ayni muddaodir.](#)

Onalar farzandlarini tinmay maqtaydilar, e'tirof etadilar. Bu odat farzand dunyoga kelishi bilan boshlanadi. Hatto bolaning eng kichkina, arziyas ishi, deydik biror so'z o'rganishi yoki oq qog'ozga ilk marotaba aji-buji chiziqlarni tortishi ham maqtov uchun ayni muddao.

Onalar bolasining bu qobiliyatini tez orada barcha yaqinlari, do'stlari bilan o'rtoqlashadilar va onalar bu ishni bolaning ko'z o'ngida amalga oshirishni ma'qul ko'radilar.

Modomiki, farzandning muvaffaqiyati yuksakroq bo'lsa, unda bu voqea rasman e'lon qilinadi, oila a'zolari, qarindoshlar tomonidan bola sha'niga maqtovlar yog'iladi.

Agar biz bolada uning hammaning diqqat va e'tiborida ekanini, uning kichik harakati ham katta e'tibor olib kelishini tushuntira olsak, bola asta-sekin jamiyatda o'zini qanday tutishi kerakligini anglaydi hamda o'z-o'zidan ijobiy kayfiyatdagi shaxsiy fe'l-atvori shakllanadi.

Farzandning bu yutuqlarini ovoza qilish esa uni bu yaxshi ishlarni davom ettirishi uchun tirishishini ta'minlaydi.

[Ota-onada xulq-atvor va o'zini tutishda yuqori darajadagi mas'uliyat kerak.](#)

Yahudiylarda "otasini bosh oriq qilgan bolaga e'tiborsizlik – kelajakda otaning yurak og'rig'iga muhtalo bo'lishiga teng" degan naql bor.

Ushbu millatning tarbiya an'analariga ko'ra, hatto ota-onaning shoshilinchda aytgan arziyas so'zi yoki nojo'ya harakati, farzandga e'tiborsizlik ham farzandning tarbiyasini buzishi mumkin bo'lgan sababdir. Shu tufayli, yahudiy ota-onalar turli vaziyatda o'zlarini tutishlari va og'izlaridan chiqayotgan so'zlari bilan farzandlariga na'muna bo'ladilar.

Shu sababli bo'lsa kerak, yahudiylar farzandga nom tanlashda ham juda e'tiborli bo'lishadi. Boisi, ular farzandning ulg'ayish jarayonida uning nomi fe'liga ta'sir qilishiga ishonadilar.

[Oiladagi muhabbat va hurmat – ruhiy sog'lom bola tarbiyalashning omilidir.](#)

Mazkur millatning urf-odatlariga ko'ra, har qanday oilaning ustuni – ota-ona, ya'ni er va xotindir. Shu bois ham, farzandga uning erta yoshidan boshlab oilada otaning onaga va onaning otaga bo'lgan munosabatlariga oid bilimlar o'rgatib boriladi. Bunda ota-ona farzandiga o'rnak bo'ladi.

Ruhshunoslarning fikricha, agar farzand ota-onasi o'rtasidagi muhabbatni his qilsa, ularning er va xotin sifatida bir-birlariga bo'lgan hurmatlari, g'amxo'rliigi va

sevgisini his qilsa, bu kabi farzandning o'ziga bo'lgan ishonchi, hayotdagi omadi va muvaffaqiyati doimo yuqori bo'ladi.⁴

Shu bilan birga, ota-onaning o'zini tutishi – kamolga yetayotgan navniholning o'sib-unishi uchun misoli buloq manbai. Bu kabi bolalar kelajakda o'z oilalarida ham xuddi shunday samimiy muhitni yaratishga harakat qiladilar.

Yahudiylar har qanday sharoitda, hatto gadoga aylangan mahalda ham, farzand ota-onasini qadrlashi, keksayib qolgan ota-onaga nisbatan mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'lishi kerakligini bolalariga uqtirishdan charchamaydilar.

Ota-onalik uchun tayyorlanish – qobil farzand tarbiyalashning muhim kaliti.

Yahudiylar farzandlari dunyoga kelguniga qadar farzand tarbiyalashning sir-asrorlari bilan tanishib chiqadilar va buning uchun jiddiy tayyorgarlik ko'radilar.

Ba'zi bir yahudiy an'analariga ko'ra, farzandning millati bevosita onaga ko'ra belgilanadi. Ya'ni, onaning ishtiroki – farzand tarbiyasida muhim omildir.

Turmushga chiqqan qiz asta-sekin o'zini oila uchun tayyorlab boradi va endi o'zi uchun emas, ro'zg'or va oila uchun yashashi kerakligini o'ziga uqtiradi, bunga amal qiladi.

Yahudiylar er va xotin avval boshdanoq munosib farzand tayyorlash maqsadini oldilariga qo'yishmasa, keyin kech bo'lishi, imkoniyat qisqarishi mumkinligini ta'kidlashadi.

Aytishadiku, kuch qaysi tomonga yo'naltirsang, natijani ham shu tomondan olasan.

Qolaversa, qobil farzand tarbiyalash yuzasidan yahudiy donishmandlari tomonidan butun boshli tarbiya tizimi ishlab chiqilgan. An'anaga ko'ra, turmush qurayotgan har bir yosh undagi bilimlardan boxabar bo'lishi lozim. Bu kabi bilimlar ilgari diniy maskanlarda o'rgatilgan bo'lsa, hozir bu kabi kurslarni butun jahondan mavjud.

Yahudiylarning fikricha, hayotda "rafiqa va ona", "er va ota" degan muhim kasblar bo'lib, ularni egallash uchun ham o'qib, izlanish kerak bo'ladi. Bu esa tarbiyaning bosh kalitidir.

Farzand tarbiyalashning nemischa usuli. Sir emaski, millatlarga xos fe'l-atvor xususida so'z ketganida nemis millatiga mansub odamlarga "tartibli", "qat'iyatli", "mas'uliyatli" sifatlari ishlatiladi. Birovdan qarz bo'lishni istamaydigan, o'z aravasini o'zi tortadigan insonlarni maqtab "nemis", ya'ni tartib-intizomli ham deyishadi. Xo'sh, bu tarbiyaning siri nimada? Germaniyaliklar farzandlarini qanday usullar bilan tarbiya qiladilar? Quyida shu haqida ma'lumot beramiz.

Berlin bo'ylab sayohat qilar ekansiz, xiyobonlarda suhbatlashib qahva ichib o'tirgan ota-onalarning sho'x-shodon o'ynayotgan, har yerga osilib, sakrab sho'xlik

⁴ Rayimqulova M.A. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni erkin tarbiya texnologiyasi asosida tarbiyalashda Mariya Montessori metodikasidan foydalanish. Monografiya. Toshkent-2023. "Metodist" nashriyoti

qilayotgan bolalariga deyarli e'tiborsiz ekanliklari, ularni o'z hollariga tashlab qo'rganlarining guvohi bo'lasiz. Bolalarning baland joylardan sakrab, har narsaga osilishini ko'rib, xavotir oladi kishi. Ularga bu xavfli ekanini aytgan odamga bolalar ham, ota-onalar ham norozi nigoh bilan qarashadi. Ha! Germaniyaliklar bolalarini mana shunday mustaqil o'sib-ulayishlarini istashadi. Ularning fikrlaricha, bolaga hadeb e'tibor berish va uni nazorat qilish uning mustaqil va mas'uliyatli bo'lib o'sishiga to'sqinlik qiladi. Aslida xiyobondagi ota-onalar bolalariga befarq yoki e'tiborsiz emas. Ular shu yo'l bilan bolalariga ishonch bildiradilar.

Berlinliklar bolasini o'qishga majburlamaydi. Berlindagi maktabgacha ta'lim muassasalarida ham bolaning aqliy salohiyatini oshirishga u qadar yuqori urg'u qaratilmaydi. Agar siz bolangizga bolaligidanoq yozish yoki o'qishni o'rgatmoqchi bo'lsangiz, germaniyaliklar nazdida siz bolani noto'g'ri tarbiya qilayotgan bo'lasiz.

2012 yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, germaniyalik 15 yoshli o'quvchilar matematika, o'qish va boshqa fanlarni o'zlashtirishda dunyodagi boshqa tengdoshlariga qaraganda peshqadam ekanlar.

Berlinliklar bolaga yoshligidayoq olov bilan qanday muomala qilish kerakligini o'rgatishadi, bir nimalarni yoqib, xavfsiz o'chirish yo'llarini ko'rsatishadi. Yangi yil kunlarida birgalashib mushaklar otishadi. Bu dunyoning boshqa millat ota-onalari uchun hayratlanarli tarbiya, albatta.

Bolalarni yolg'iz sayr qilishiga ruxsat beradigan ota-onalarni boshqa yerda uchratish qiyin. Nemischa tarbiya sirlaridan biri ham shu – bolalar boshlanich sinfga chiqqach, ota-onalarisiz maktab atrofida, o'zlari istiqomat qiladigan mavze bo'ylab sayr qilishadi. Ba'zi bolalar hatto metroda mustaqil maktabga borib kelishadi. Ota-onalar bu yerda bolalar xavfsizligi haqida o'ylaganda bolalarning o'g'irlab ketilishidan emas, yo'l harakati bilan bog'liq baxtsiz tasodiflardan ko'proq cho'chiydilar.⁵

Germaniyada bolalarning o'g'irlab ketilishi juda kamyob hodisa. Amerikada esa yiliga kamida 115 nafar bola o'g'irlanishi bilan bolik jinoyat ishi sodir etiladi.

Ruhshunos va pedagoglar ham bolaning yolg'iz sayr qilishi uning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlashgan. Ammo bu bilan bolaga yolg'iz sayr qilishiga qo'yib berish kerak, degani emas. Sizning mavzeingizdagi sharoit boshqacha bo'lishi mumkin.

Nemislar inson hayotida 3 muhim tub burilish pallasi bor, deb hisoblashadi. Einsshulung – maktabga chiqish, Jugendweihe – o'spiringa aylanish hamda turmush qurish.

Berlinda bolaning maktabga chiqadigan pallasi esa bayramga aylanadi. Maktabga chiqadigan bolaga bo'yi barobar keladigan yirik idishni uning uchun kerak bo'ladigan

⁵Full Day Kindergarten An Advocacy Guide.

qalam, ruchka, o‘chirich, kitob, soat, daftar, shirinlik va bolani xursand qiladigan boshqa narsalar bilan to‘ldirishadi. Bu bilan ota-onalar bolalariga kelajak sovg‘a qilib, bu sovg‘alar bilan uning o‘qishga bo‘lgan zavq-shavqini oshiradilar. Bu sovalar bolani yaxshi o‘qishga chorlaydi.

Jugendweihe davri, ya’ni o‘spirinlik davriga o‘tishda ham xuddi shunday bayram, ziyofat uyushtiriladi. Ota-onalar farzandlariga hayotda unga bilim olishi, foydalanishi uchun zarur sovg‘alar berishadi, ularni hayotning yangi bosqichi bilan qutlashadi.

Germaniyaliklar har kuni bolalari bilan sayr qilishni yaxshi ko‘rishadi. Nemislarning shunday maqoli bor: “Ob-havoning noqulayi bo‘lmaydi. Faqatgina nobop kiyim bo‘lishi mumkin”. Ular bog‘cha yoki maktab yoshidagi bolalarini har qanday ob-havo sharoitida aylantirgani olib chiqishadi. Qor yoki sovuqda ham bolalar Berlin ko‘chalarida o‘ynab yurishgan bo‘ladi.

Ha! Nemislar uchun toza havo shunchalar muhim. Maktabda ham ochiq havoda dars o‘tish imkoniyatidan tez-tez foydalaniladi.

Tarbiyaning yana bir jihati bor – oilaviy dasturxon uchun novvoyxonadan non olib kelish vazifasini ota-onalar bolalariga kichikligidayoq topshirishadi. Bu ham ularning mas’uliyatli bo‘lib o‘sislariga yordam beradi. Shunda uyga non bilan qaytgan bola vazifasini qoyilmaqom qilib uddalagan askar misoli g‘alaba kayfiyatidan sarmast bo‘ladi.

Nemislar bola zehnli bo‘lib ulayishi uchun unga ishonch berilishi kerakligini ko‘p takrorlashadi. Umid qilamizki, bola tarbiyasida yuqoridagi usullarning yaxshi va yomon jihatlariga xos xulosa chiqarib bo‘ldingiz.⁶

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun 8-moddasi Abdullayeva N.Sh. Maktabgacha ta’limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish ; Toshkent, 2019-152-bet
2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-sonli qaroriga 1-ilova
3. Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari to‘risidagi NIZOM
4. <https://galitravel.ru/doshkolnoe-obrazovanie-v-yaponi>
5. Sbornik Detskiy sad v Yaponii. Perevod s yaponskogo Grishevskiy N.D. – Moskva: 1997.
6. Борисова Светлана Петровна. Современное дошкольное образование за рубежом– Москва: 1994.
7. Параманов Л.А. Протасова С.Й. Дошкольное и начальное образование зарубежом: история и современность – М.: «Академия »,2001.

⁶ Bolibekov A.A. Yo‘ldosheva M.A. Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta’lim-tarbiya. Uslubiy qo‘llanma. Guliston-2019.

8. Rayimqulova M.A. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni erkin tarbiya texnologiyasi asosida tarbiyalashda Mariya Montessori metodikasidan foydalanish. Monografiya. Toshkent-2023. "Metodist" nashriyoti
9. Full Day Kindergarten An Advocacy Guide.
10. Bolibekov A.A. Yo'ldosheva M.A. Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'lim-tarbiya. Uslubiy qo'llanma. Guliston- 2019.
11. <http://sdo-10. journal.ru/journalnumbers/anglijskaja-sistema-do.html>
12. <https://tarbiyachilar.uz/rossiyada-bolalar-bogchasi/>

